INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

NOMULKIY XUSUSIYATDAGI IJRO HUJJATLARI IJROSINI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
Magistratura fakulteti tinglovchisi
Hurramov Shohjahon Ixtiyor o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlarining huquqiy tabiati, ularni ijro etishning amaldagi milliy mexanizmlari, amaliyotda uchrayotgan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual va ushbu mavzuga aloqador bo'lgan qonunchilik asosida nomulkiy talablarning o'ziga xosligi, xususan qarzdorning muayyan harakatni sodir etishi yoki bunday harakatdan tiyilishi bilan bog'liq majburiyatlar ijrosi o'rganiladi. Shuningdek, ijro hujjatini to'g'ridan-to'g'ri ijroga yuborish, ijro organlari bilan boshqa davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik, raqamlashtirish, nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Nomulkiy ijro hujjati, majburiy ijro, davlat ijrochisi, ishga tiklash, ko'chirish, ijro varaqasi, sud hujjatlarining majburiyligi, Majburiy ijro byurosi, raqamli ijro.

Abstract: This article analyzes the legal nature of non-property enforcement documents, the current national mechanisms for their enforcement, the main problems encountered in practice and ways to eliminate them. The specifics of non-property claims, in particular, the execution of obligations related to the debtor's performance or abstention from a certain action, are studied on the basis of the civil procedural and related legislation of the Republic of Uzbekistan. The issues of direct submission of an enforcement document for enforcement, cooperation between enforcement bodies and other state bodies, digitization, strengthening of control and accountability mechanisms are also discussed.

Keywords: Non-property enforcement document, compulsory enforcement, state bailiff, reinstatement, transfer, writ of execution, binding nature of judicial documents, Bureau of Compulsory Enforcement, digital enforcement.

Аннотация: В данной статье анализируется правовая природа неимущественных исполнительных документов, действующие национальные механизмы их исполнения, основные проблемы, встречающиеся на практике, и пути их устранения. Специфика неимущественных требований, в частности, исполнение обязательств, связанных с исполнением должником или воздержанием от определенного действия, рассматривается на основе гражданско-процессуального и смежного законодательства Республики Узбекистан. Также обсуждаются вопросы прямой подачи исполнительного документа на исполнение, сотрудничества между органами исполнения и другими государственными органами, цифровизации, усиления механизмов контроля и подотчетности.

Ключевые слова: Неимущественный исполнительный документ, принудительное исполнение, государственный судебный пристав, восстановление, передача, исполнительный лист, обязательный характер судебных документов, Бюро принудительного исполнения, цифровое исполнение.

Kirish

Huquq ustuvorligi faqat sud qarorining chiqarilishi bilan emas, balki uning amalda to'liq va o'z vaqtida ijro etilishi bilan ta'minlanadi. Shu ma'noda sud hujjatlari ijrosi odil sudlovning yakuniy bosqichi bo'lib, ayniqsa nomulkiy xususiyatdagi hujjatlar bo'yicha samarali ijro

mexanizmining mavjudligi fuqarolarning buzilgan huquqlarini real tiklashga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda nomulkiy sud hujjati tuhunchasini ham yozib o'tishimiz tadqiqot mavzusini yana ham tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari deganda qarzdorga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan tiyilish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatlari tushuniladi; bunday hujjatlarga ishga tiklash, bolani topshirish, yer uchastkasini bo'shatish, imoratni buzish, bola bilan uchrashish tartibini belgilash, aliment undirish va shunga o'xshash boshqa talablar kiradi.1

Sud hujjatlarini ijro etishdan har qanday bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek, fuqarolarning minimal turmush darajasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirish va yanada takomillashtirish zarur.2

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunning 1-moddasi mazmunidan kelib chiqadiki, ijro faqat pul yoki mol-mulk undirish bilan cheklanmaydi; balki shaxs zimmasiga muayyan harakatni amalga oshirish yoki bunday harakatdan tiyilish majburiyatini yuklovchi hujjatlar ham majburiy ijro predmeti hisoblanadi.3 Demak, nomulkiy talablar ijrosi, mohiyatan, shaxsning xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, bu turdagi hujjatlarni ijro etish mulkiy undiruvlarga nisbatan ancha murakkab protsessual va tashkiliy choralarni talab qiladi.

Shu bois mazkur maqolaning maqsadi - nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari ijrosining amaldagi milliy modelini tahlil qilish, undagi asosiy muammolarni aniqlash va milliy hamda xorijiy tajriba asosida ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tzimli tahlil va funksional yondashuvlardan foydalanildi. Ijro ishi yuritishning fuqarolik huquqi bilan aloqadorligi shundaki, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi moddiy huquq normalari, buzilgan huquqlarni tiklash ijro huquqi tomonidan sudlarning manfaatdor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash to 'g'risidagi qarorlarini majburiy ijro etish orqali ta'minlanadi.4 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 16-moddasiga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lib, ularni bajarmaslik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.5

---

1 Левченко В.Е., Кучерова Д.А. Исполнение требований неимущественного характера, содержащихся в исполнительных документах // Евразийский Союз Ученых. — 2015. — №2(11). — С. 45-48.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 3 январдаги ПФ-1-сон Фармони "Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тизимини ислоҳ этиш ва соҳани рақамлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида". https://lex.uz/docs/6723273

3 "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonun. https://lex.uz/mact/-26477

4 Tuxtasheva U. Ijro ishi yuritish: Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 256 bet.

5 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. https://lex.uz/acts/-3517337

O’zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to’g’risida”gi qonun asosan ijro hujjati tushunchasi va turlarini, ijro ishini yuritish tartibini, majburiy ijro organlarining vakolatlarini, qarzdor va undiruvchining huquqlarini va ijro xarajatlari hamda javobgarlik kabi masalalarni tartibga soladi. Qisqa qilib aytganda, bu qonun – sud qarorining real hayotda ijro etilishini ta’minlaydigan mehanizmlarni belgilab beradi. Ushbu qonunning 5-moddasiga ko’ra quydagilar ijro hujjati hisoblanadi: sud buyruqlari; notariuslarning ijro xatlari; alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar; mehnat nizolari komissiyalarining guvohnomalari; ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar chiqargan qarorlar; o‘zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma’muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurorlarning qarorlari; davlat ijrochilarining qarorlari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari shular jumlasidandir.6

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 71-moddasiga ko‘ra, ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega. Bu “ota-onalik huquqlari” deb yuritilib, bola manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan asosiy tamoyil hisoblanadi. Ushbu huquqlar bola 18 yoshga to‘lganda (voyaga yetganda), shuningdek voyaga yetmagan bo‘lsa-da nikohga kirganida yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lganida tugaydi.7

Mazkur norma, ayniqsa, bola bilan uchrashish tartibini belgilashga oid nizolarda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ota-onalarning teng huquqliligi bola tarbiyasida har ikkala tomonning ishtirokini ta’minlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ota-onalar o‘rtasidagi nizolar bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, bunday holatlarda ijro harakatlarini amalga oshirishda bolaning manfaatlari ustuvor hisoblanadi va barcha qarorlar aynan shu mezon asosida qabul qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 yanvardagi PF-1-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan ijro ishi yuritish tizimini raqamlashtirish bo‘yicha muhim qadamlar belgilandi. Farmonga muvofiq, sud hujjatlari asosida ijro hujjatlarini faqat elektron shaklda berish tartibi joriy etilmoqda. Bu o‘zgartirish ijro jarayonining shaffofligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan.

Farmonga muvofiq, 2024 yil 1 dekabrdan “Majburiyatlar reestri” instituti joriy etildi. Ushbu reestr qarzdorlarning majburiyatlari haqida ma’lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va ularga kirish imkonini beradi. Bu tizim kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qarzdorning majburiyatlari haqida ma’lumot olishni osonlashtiradi.8

O’zbekiston Respublikasida nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari ijrosini ta’minlash mexanizmlarini samaradorligini oshirish uchun chet davlat tajribalarini tahlil qilishimiz zarur. Rossiya Federatsiyasining ijro ishi yuritish tajribasini qiyosiy tahlil qilish foydali hisoblanadi. Rossiyada nomulkiy xususiyatdagi talablarni ijro etish tartibi 2007 yil 2 oktyabrda qabul qilingan 229-FZ-son “Ijro ishi yuritish to‘g‘risida”gi Federal qonunning 13-bobida belgilangan.

---

6 “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonun. https://lex.uz/mact/-26477

7 O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. https://lex.uz/mact/-104720

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 1-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6723273

Ushbu bob nomulkiy xususiyatdagi talablarni ijro etishning umumiy qoidalari, ishga tiklash, bolani topshirish, imoratni buzish va boshqa nomulkiy talablarni ijro etish tartibini belgilaydi.9

Fransiya Fuqarolik ijro kodeksining (Code des procédures civiles d'exécution) L131-1 - L131-4-moddalari "astreinte" - har bir kechiktirilgan kun uchun pul jarimalari tizimini belgilaydi. Bu jarima miqdori har bir kechiktirilgan kun uchun belgilanadi va har ikki haftada oshib boradi. Natijada majburiyatni bajarmaslik tobora qimmatga tushadi.10

AQSH ning alohida shtatlari (masalan, Kaliforniya Family Code. 3027.1, Nyu-York Domestic Relations Law. 245) bola bilan muloqotga to'sqinlik qilganlik uchun contempt of court (sudga hurmatsizlik) jarayonini qo'llaydi. Bu jarayon orqali sud tomonidan to'g'ridan-to'g'ri huquqbuzarga nisbatan jarima yoki hibsga olish chorasi qo'llanilishi mumkin.11

AQSH tajribasining diqqatga sazovor tomoni - ijro masalalarini ko'rib chiqishda bolaning o'z istaklarini hisobga olish. 14 yoshdan oshgan bolaning fikri sifatida tan olingan holda, bola muloqot tartibini o'zgartirishni talab qilishi mumkin.

Natijalar va muhokama

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligida nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari uchun umumiy huquqiy asos mavjud. Xususan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik majburiyatini yuklovchi hujjatlarni ijro predmetiga kiritadi. Shu bilan birga, ayrim toifadagi hujjatlar bo'yicha maxsus tartib ham nazarda tutilgan: ishga tiklash haqidagi hujjatlar darhol ijro etilishi, davlat organi, tashkilot yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilgan ayrim majburiyatlar esa dastlab tegishli organning o'zi tomonidan bajarilishi, uzrsiz sabablarga ko'ra ijro etilmaganda esa Majburiy ijro byurosiga taqdim etilishi belgilangan. Bu model MIB yuklamasini kamaytirishga xizmat qilsa-da, amaliyotda ikki bosqichli mexanizm ayrim hollarda cho'zilish va mas'uliyatning "tarqalib ketishi"ga olib kelishi mumkin. Nomulkiy xususiyatdagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular quydagilardan iborat:

Birinchidan, nomulkiy talablarning qonunchilikda yagona funksional tasnifi yetarli emasligidir. Xorijiy adabiyotlarda qarzdorning shaxsiy ishtiroki zarur bo'lgan talablar bilan qarzdor ishtirokisiz ham bajarilishi mumkin bo'lgan talablar o'rtasidagi farq alohida ko'rsatiladi. Bunday tasnif ijro chorasini to'g'ri tanlash uchun muhim: masalan, ishga tiklash yoki muayyan faoliyatni to'xtatish bevosita qarzdorning yoki vakolatli organning shaxsiy-huquqiy harakatini talab qiladi; ko'chirish yoki undiruvchini joyga kiritish esa tashkiliy-majburiy choralar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligida bunday tasnifni aniq normativ ko'rinishda mustahkamlash ijro amaliyotini soddalashtirgan bo'lar edi.

Ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar ijrosi ustidan real nazoratning yetarli darajada kuchli emasligidir. Qonunning 82-moddasi ayrim hollarda bunday hujjatlar avval tegishli organ tomonidan bajarilishi, bajarilmasa aybdor

---

9 Федеральный закон от 02.10.2007 № 229-ФЗ «Об исполнительном производстве», глава 13. www.consultant.ru

10 Code des procédures civiles d'exécution, Art. L131-1 – L131-4. Légifrance. Légifrance - Le service public de la diffusion du droit

11 California Family Code §3027.1; New York Domestic Relations Law .245. California Legislative Information

shaxslar javobgarlikka tortilishi mumkinligini nazarda tutadi. Ammo amaliy natija nuqtai nazaridan “javobgarlik bor” degan umumiy qoida yetarli emas; organlarning kechiktirishiga qarshi avtomatik monitoring, hisobotlilik va shaxsiy intizomiy mas’uliyat mexanizmlari samaraliroq ishlashi kerak. 2024-yilgi PF-1-son Farmonda elektron ijro hujjatlari, “Majburiyatlar reyestri”, monitoring markazi, qo‘shimcha shtatlar va bodi-kameralardan foydalanish kabi choralar aynan nazorat va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.12

Uchinchidan, institutsional hamkorlikning sifatiga taalluqlidir. Nomulkiy hujjatlarning katta qismi faqat MIBning o‘zi bilan hal bo‘lmaydi; bunda ish beruvchi, kadastr organi, FHDYO, ichki ishlar organlari, mahalliy hokimliklar va boshqa subyektlarning hamkorligi talab etiladi. Majburiy ijro byurosining davlat organlari bilan axborot almashinuvi tizimiga integratsiyalashgani hamda uning vakolatli davlat organlari bilan ishlashi huquqiy jihatdan mustahkamlangani bu borada ijobiy asos yaratadi. Biroq axborot almashinuvi oddiy statistik ma’lumot yuborish darajasidan chiqib, real vaqt rejimida ijro holatini kuzatish, topshiriq muddatlarini belgilash va ularning buzilishi yuzasidan avtomatik signal beruvchi raqamli platformaga aylanishi zarur.

To’rtinchidan, ayrim nomulkiy qarorlar uchun ijro varaqasi berish zarurati bilan amaliyotdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijro mexanizmi o‘rtasidagi tafovutdir. Milliy adabiyotda ishga tiklash, nikohdan ajratish, shartnomani haqiqiy emas deb topish kabi qarorlar ko‘pincha bevosita tegishli organlarga yuborilishi qayd etiladi. Bu esa ayrim sud hujjatlarining o‘zini ijro hujjati sifatida tan olish masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Mazkur yondashuv, bir tomondan, protsessual vaqtni tejaydi; ikkinchi tomondan esa qaysi toifadagi hujjatga bunday maqom berilishi, qaysi hollarda esa klassik ijro varaqasi tartibi saqlanishi kerakligini aniq belgilashni talab etadi

Shu nuqtai nazardan, maqolada quyidagi yechimlar asosli deb topildi. Birinchidan, qonunchilikda nomulkiy talablarni kamida ikki turga - qarzdorning shaxsiy ishtiroki shart bo‘lgan va shart bo‘lmagan talablarga ajratish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, davlat organlari zimmasidagi nomulkiy majburiyatlar bo‘yicha avtomatik nazorat va shaxsiy mas’uliyat mexanizmi kuchaytirilishi kerak. Uchunchidan, elektron ijro hujjati, “Majburiyatlar reyestri”, bodi-kamera va monitoring markazi kabi islohotlar aynan nomulkiy ijro uchun ham maxsus algoritmlar bilan to‘ldirilishi lozim.

Xulosa

Umumiy xulosa qiladigan bo’lsak, nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari ijrosi odil sudlov samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Mazkur toifadagi hujjatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular mulkni undirishdan ko‘ra ko‘proq xulq-atvorni, tashkiliy harakatni yoki huquqiy holatni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli ularni ijro etishda umumiy ijro mexanizmlarini qo‘llash bilan cheklanib bo‘lmaydi; maxsus tasnif, aniq protsessual standartlar, raqamli nazorat, kuchli idoralararo hamkorlik va inson huquqlariga sezgir yondashuv talab etiladi.

O‘zbekiston qonunchiligida bunday ijro uchun zarur boshlang‘ich asos mavjud bo‘lsa-da, amaliy samaradorlikni oshirish uchun bir qator yo‘nalishlarda takomillashtirish zarur: nomulkiy talablarning normativ tasnifini joriy etish; sud hujjatlaridagi ijro formulasini standartlashtirish;

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 1-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6723273

ayrim sud hujjatlariga bevosita ijro hujjati maqomini berish masalasini aniq belgilash; davlat organlari va mansabdor shaxslar majburiyatlari bo‘yicha avtomatlashtirilgan monitoring hamda shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish; murakkab ijro harakatlari uchun alohida reglamentlar ishlab chiqish. Ayniqsa 2024-yilda boshlangan raqamlashtirish va institutsional modernizatsiya islohotlari mazkur yo‘nalishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin

Shunday qilib, nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari ijrosini takomillashtirish faqat ijro organi faoliyatini kuchaytirish emas, balki sud, ijro organi, davlat organlari, ish beruvchilar, ro‘yxatga oluvchi organlar va boshqa subyektlar o‘rtasida yagona, aniq va raqamli koordinatsiyalashgan tizimni shakllantirishni anglatadi. Ana shundagina sud hujjatining majburiyligi haqidagi konstitutsiyaviy va protsessual prinsip real huquqiy natijaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Левченко В.Е., Кучерова Д.А. Исполнение требований неимущественного характера, содержащихся в исполнительных документах // Евразийский Союз Ученых. — 2015. — №2(11). — С. 45-48.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 3 январдаги ПФ-1-сон Фармони "Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тизимини ислоҳ этиш ва соҳани рақамлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида". https://lex.uz/docs/6723273

3. “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonun. https://lex.uz/mact/-26477

4. Tuxtasheva U. Ijro ishi yuritish: Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 256 bet.

5. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. https://lex.uz/acts/-3517337

6. O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. https://lex.uz/mact/-104720

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 1-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6723273

8. Федеральный закон от 02.10.2007 № 229-ФЗ «Об исполнительном производстве», глава 13. www.consultant.ru

9. Code des procédures civiles d’exécution, Art. L131-1 – L131-4. Légifrance. Légifrance - Le service public de la diffusion du droit

10. California Family Code §3027.1; New York Domestic Relations Law .245. California Legislative Information